SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DJALILOVA SARVAROY MEXROJOVNA

ISPAN VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIYASIDAGI RANGLARNING MILLIY-MADANIY SEMANTIKASI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

UO‘K: 811.512.133:811.134.2+81`373,7

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Djalilova Sarvaroy Mexrojovna
Ispan va o‘zbek frazeologiyasidagi ranglarning milliy-madaniy semantikasi 3

Джалилова Сарварой Мехрожовна
Национально-культурная семантика цвета в испанской и узбекской фразеологии 27

Djalilova Sarvaroy Mekhrojovna
National and cultural semantics of color in Spanish and Uzbek phaseology 53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 57

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DJALILOVA SARVAROY MEXROJOVNA

ISPAN VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIYASIDAGI RANGLARNING MILLIY-MADANIY SEMANTIKASI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.PhD/Fil4415 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdchti.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Shamaxmudova Aziza Furkatovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kiselyov Dmitriy Anatolyevich** filologiya fanlari doktori, dotsent
	Baxronova Dilrabo Keldiyorovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «10» avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61931-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140117, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «1» avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil «1» avgust dagi 27-raqamli reyestr bayonnomasi.)

N.Z.Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

O‘.O‘.Qo‘ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

D.A.Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida globallashuv va madaniyatlararo kommunikatsiyalar o‘sib borayotgan sharoitda milliy o‘zlikni anglash va madaniy o‘ziga xoslik masalalari gumanitar fanlar yo‘nalishida asosiy mavzularga aylanmoqda. Rang nomlarining umumiy va ayni paytda madaniy jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan kodlar sifatida o‘rganilishi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Rang semantikasining lingvomadaniy kod elementi sifatida o‘rganilishi alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki bu til va madaniyatda mustahkamlangan dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Turli madaniy va tarixiy an’analarning kesishuv nuqtasi bo‘lgan O‘zbekiston uchun bu yo‘nalish strategik ahamiyat kasb etadi. Rang semantikasi nafaqat leksik birlik, balki til egalarining etnomadaniy qadriyatlari, psixologik-emotsional holatlari hamda mental xususiyatlarini ifodalovchi konseptual element sifatida talqin qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan, frazeologik birliklar tarkibida ranglarning lingvomadaniy ramziyati alohida ilmiy ahamiyat kasb etib, turli mamlakat tilshunoslari e’tiborini tortmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida ranglarning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi roli, til va madaniyatda ularning ramziyati, shuningdek, turli tillarda rang atamalarining qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xususan, Ispaniyada frazeologik birliklar asosida olib borilayotgan lingvomadaniy va semantik izlanishlar rang tushunchasini madaniy kodlarni anglashning kaliti sifatida baholaydi. Kognitiv tilshunoslik va madaniyatlararo muloqotga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar hamda ilmiy jurnallarda ranglar ramziyati masalasi tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda. Bu holat rang konsepti doirasidagi tadqiqotlarning jahon ilmiy diskursidagi o‘rnini va dolzarbligini tasdiqlaydi. Bu jarayon tilshunoslikda yangi yondashuvlar, xususan, kognitiv va lingvokulturologik tahlil metodlarining shakllanishiga turtki bermoqda. Natijada, ranglar orqali ifodalangan konseptlar nafaqat tilning ichki tizimini, balki xalq mentaliteti va madaniy xotiraning lingvistik in’ikosini o‘rganishda muhim omil sifatida ko‘rilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida ranglar ramziyatini yosh, tashqi ko‘rinish, xarakter, ijtimoiy mavqe va insonning psixologik holatini tasvirlash kontekstida o‘rganish tarixiy voqealar, urf-odatlar, an’analar, diniy amaliyotlar, ilm-fan, san’at va adabiyotning ranglarni qabul qilishga ta’sirini aniqlashga imkon berdi. Bu ta’sir nafaqat o‘zbek tili sohiblarida, balki qardosh va noqardosh boshqa xalqlarda ham kuzatiladi. Bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi, chunki ushbu qonuniyatlarni tadqiq qilish tilda ranglarning ramziy ma’nosiga hamda turli madaniyatlarda insonning idrokiga madaniy va tarixiy omillarning ta’sirini chuqurroq tushunishga imkon beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlagan “Fan va ma’rifat nafaqat yoshlar, balki butun bizning jamiyatimiz intelektual va ma’naviy imkoniyatlarini oshirishda muhim ahamiyatga egadir”[1]. Ushbu fikrlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojati // https://president.uz/ru/lists/view/3324

ilmiy tadqiqotlarning, jumladan tilshunoslik sohasidagi izlanishlarning mamlakat taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyatini belgilaydi. Davlat siyosatida xorijiy tillarni chuqur o‘rganish, malakali mutaxassislarni tayyorlash, zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish, til va madaniyat integratsiyasini ko‘zda tutuvchi innovatsion yondashuvlarni ilgari surish ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning jahon ilmiy-madaniy makoniga integratsiyalashuviga munosib hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026- yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qoshimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Matnning lisoniy tarkibi, hamda rang semantikasini o‘rganishning fundamental asoslari bir qator tilshunoslar tomonidan o‘rganilib, ularning madaniy, kognitiv va metaforik tabiati ochib berilgan. [2]Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunoslari N.D. Tashlanova, N.Z. Uluxujayev, M.K. Turdiyeva, X.T. Umarov, N.K. Sharipova, A.V. Saidov, I.M. Xojalepesovalar tomonidan ham olib borilmoqda.[3]

---

[2]Берлин Б., Кей П. Основные цветовые термины: их универсальность и эволюция. – Беркли: University of California Press, 1969. – 178 с.; Локк Дж. Опыт о человеческом разумении. – Лондон: Thomas Basset, 1690. – 456 с.; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Индрик, 2005. – 288 с.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1996. – 411 с.; Брагина А. А., Мокиенко И. В. Семантическая структура цветовых терминов. – СПб.: Издательство СПбГУ, 2005. – 320 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология. - М.: РУДН, 2008. - 340 с.; Бахилина Н. Б. История цветообозначений в русском языке. – М.: Наука, 1975. – 287 с.; Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград, 2002. – 477 с.; Корнилов О.А. Языковая картина мира как производное национального менталитета. – М.: ЧеРо, 2003. – 349 с.

[3] Ташланова Н.Д. Семантические и структурные особенности лексики цветообозначения в английском, узбекском и русском языках: Монография. - ФерганаСША: Издательство «Global Book Publishing Services (GBPS) USA», 2022. - 125 с.; Улухужаев Н.З. Лингвокультурологические особенности фразеологизмов с компонентами-соматизмами в русском и узбекском языках // Вестник Таджикского национального университета. – 2020. – № 4. – С. 145-150; Турдиева М. К. Цветовые обозначения в узбекской фразеологии. – Ташкент: Университет. – 2020. – 34 с.; Умаров Х.Т. Фразеологические единицы как отражение традиционной

Frazeologiyaning lingvo madaniy jihati mahaliy olimlar - T.A.Bushuy, M.R. Galiyeva, N.Z.Nasrullayeva, Sh.S. Safarov, A.A.Tkachyova, A.F. Shamaxmudova, A.A. Yaxshiyevlar tadqiqot ishlarida aks ettirilgan.[4]

Ispaniyada G.D.M. Alvares, M.S. Garsiya-Page, G.I. Kospas Pastor, I.V. Boske, X.T. Kasares, X.E. Sirlot, E.G. Heller va X.G. Rodriges kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarini ispan tilidagi ranglarning ramziy yukiga bag‘ishladilar. [5]Ushbu olimlar til orqali uzatiladigan madaniy kodlarni anglash hamda ispan tili frazeologiyasidagi ranglar ramziyatini tahlil qilishga katta hissa qo‘shganlar.

Biroq, o‘zbek va ispan tillarida rang semantikasini qiyosiy o‘rganish hali yetarlicha tadqiq qilinmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan amalga oshirilayotgan “Frazeologiyaning antropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi dunyoqarashning etnomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi ranglarning idrok etilishi va ramziy ma’nosidagi madaniy farqlarga e’tibor qaratgan holda ispan va o‘zbek frazeologiyasida rangning milliy-madaniy semantikasini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lingvokulturologiya va frazeologiyaning nazariy asoslarini o‘rganish hamda ranglarning tildagi ramziy element sifatida tutgan o‘rnini aniqlash;

lingvokulturologiyada rang semantikasini o‘rganishga oid mavjud nazariy yondashuvlarni tadqiq qilish;

культуры узбеков // Oriental Studies. – 2021. – № 5. – С. 132-140; Шарипова Н.К. Гендерные стереотипы во фразеологии (на материале русского и таджикского языков) // Женщина в обществе. – 2020. – № 4. – С. 112-118; Саидов А.В. Фразеологизмы как маркеры культурной идентичности // Лингвистические исследования. – 2022. – № 1. – С. 45-52; Ходжалепесова И.М. Фразеологизмы с компонентом цвета в узбекском языке: лингвокультурный аспект // Вестник Ташкентского государственного педагогического университета. – 2020. – № 3. – С. 45-52.

[4] Бушуй Т.А. Национально-культурная специфика фразеологизмов в русском и английском языках // Вестник МГУ. Серия 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2017. – № 3. – С. 45-52; Галиева М.Р. Лингвокультурологический анализ фразеологических единиц с компонентом-зоонимом // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2019. – Т. 12. – № 6. – С. 120-124; Насруллаева Н.З. Сопоставительный анализ русских и узбекских фразеологизмов // Язык и культура. – 2016. – № 4. – С. 78-85; Насруллаева Н.З. Фразеология как отражение национального менталитета. – Ташкент: Узбекский гос. ун-т, 2018.-156 с.; Сафаров Ш.С. Фразеологизмы как маркеры культурного кода // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2020. – № 2. – С. 34-42; Ткачева А.А. Культурные коннотации во фразеологии // Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2018. – № 1. – С. 56-63; Шамахмудова А. Ф. Билвосита нутқий актларни мулоқот матнида воқелантирувчи этнопрагматик омиллар // Филол. фан. бўйича фалс. фан. докт. (PhD) дисс. автореф. - Т., 2019. – 165 с.; Яхшиев А.А. Фразеологизмы как отражение традиционного мировоззрения // Oriental Studies. - 2020. - № 4. – С. 112-120.

[5] Álvarez G. D. M. Función pragmática de las unidades fraseológicas en Rosario Tijeras // Revista Virtual Universidad Católica del Norte. – 2011. – № 33. – С. 1–16; García-Page M. S. Introducción a la fraseología española: estudio de las locuciones. – Rubí: Anthropos, 2008. – 278 с.; Corpas Pastor G. Manual de fraseología española. – Madrid: Gredos, 1996. – 429 p.; Bosque I. El nombre común // Gramática descriptiva de la lengua española. – Т. 1: Sintaxis básica de las clases de palabras. – Madrid: Espasa-Calpe, 1999. – С. 3–76; Casares J. Introducción a la lexicografía moderna. – Madrid: Consejo Superior de Investigaciones Científicas, 1992. – 254 с.; Cirlot J. E. Diccionario de símbolos. – 1992. – 448 с.; Heller E. Psicología del color: Cómo actúan los colores sobre los sentimientos y la razón. – 2008. – 320 с.; Rodríguez J. G. Las unidades fraseológicas del español y el catalán con elementos de la naturaleza: estudio cognitivo-contrastivo y propuesta de un diccionario electrónico de fraseología bilingüe: Дисс. … докт. филол. наук. - 2019. – // https://www.tdx.cat/bitstream/handle/10803/667253/jgr1de1.pdf?sequence=1.

ispan va o‘zbek adabiy manbalaridan ranglar bilan bog‘liq frazeologizmlarni tasniflash, ularning etnomadaniy ma’nosini tahlil qilish;

qiyoslanayotgan tillardagi badiiy asarlarda ranglar ramziyati bilan bog‘liq frazeologik birliklarning lingvokulturologik mazmunini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ispan va o‘zbek tillarida rang bilan bog‘liq frazeologik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ispan va o‘zbek frazeologiyasida ranglarning milliy-madaniy semantikasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va ramziy ma’nolari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ishda madaniyatlararo tahlil, qiyosiy-tipologik, kontekstual, miqdoriy, qiyosiy, komponent tahlili va uzluksiz tanlash kabi tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

til tizimi o‘rtasidagi madaniy-genetik aloqalarni aniqlashga imkon beradigan ispan va o‘zbek tillarida rang terminlari va frazeologik birliklarni qiyoslash uchun kompleks yondashuv ishlab chiqilgan;

badiiy asarlar tahlili asosida mualliflar ijodida rang bilan bog‘liq atamalarning amaliy qo‘llanilishiga tayanib botiniy madaniy va hissiy qatlamlar vositasida badiiy nutqning ma’no bo‘yoqdorligiga xilma-xillik kiritilishi aniqlangan;

o‘zbek lingvistik kontekstida ranglar bilan bog‘liq madaniy assotsiatsiyalarning chuqur tahlili amalga oshirilib, ikki tilning madaniy an’analari rang terminlarining hissiy va ramziy qiymatini shakllantirilishi asoslangan;

madaniy ongni shakllantirishda muhim bo‘lgan rang terminlarining qo‘llanilishiga bog‘liq hissiy assotsiatsiyalar belgilab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot rang terminlari va frazeologizmlardan foydalanishdagi madaniyatlararo farqlar va o‘xshashliklarni aks ettiruvchi maxsus lug‘atlar yaratish uchun xizmat qilgan;

tadqiqot natijalari leksikologiya, sotsiolingvistika va madaniy semantika sohasida keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni ochib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siriga oid yangi nazariyalarni shakllantirish uchun asos bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, nazariy ma’lumotlarni dalillashda ishonchli ilmiy manbalarga tayangan holda ish olib borilgani, to‘plangan misollar ilmiy nuqtai nazardan sinalgan usullar asosida tavsiflangani, erishilgan natijalar va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar hozirgi kunda ispan tilida keng qo‘llaniladigan frazeologizmlarning tasnifi, ularni farqlash mezonlari masalalariga oid ilmiy ma’lumotlarni kengaytiradi va bu boradagi ilmiy xulosalarni takomillashtirishga imkon yaratadi hamda mazkur xulosalar frazeologik birliklarning nutqda qo‘llanilishi va ularning milliy madaniy masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undanumumiy tilshunoslik, ispan tili nazariy grammatikasi, ispan tili morfologiyasi kabi fanlaridan ma’ruza matnlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalaridan oliy va o‘rta ta’limda ispan tilini o‘qitish jarayonida foydalanish yuqori samara beradi hamda frazeologik lug‘atlar tuzishda tarjima variantlarini aniq belgilashda amaliy material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ispan va o‘zbek frazeologiyalarida rangning milliy-madaniy semantikasini o‘rganish asosida:

til tizimi o‘rtasidagi madaniy-genetik aloqalarni ham aniqlashga imkon beradigan rang terminlari va frazeologik birliklarni qiyoslash uchun kompleks yondashuv mavzusidan chiqarilgan ilmiy natijalar va amaliy tavsiyalar asosidagi xulosalardan 5983-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP “University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China(UNICAC)” nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 24- apreldagi №04/11-5480 son ma’lumotnomasi). Natijada, rang semantikasining har bir tilga xos jihatlari va umumiy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinishi uning xalq dunyoqarashiga ta’siri ko‘rsatilgan;

badiiy asarlar tahlili asosida mualliflar ijodida rang bilan bog‘liq atamalarning amaliy qo‘llanilishiga tayanib botiniy madaniy va hissiy qatlamlar vositasida badiiy nutqning ma’no bo‘yoqdorligiga xilma-xillik kiritilishi tahlil qilingan tavsiyalardan «PZ-20170930309 «Qoraqalpoq folklori tilining adabiy til rivojiga ta’siri masalasi» mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universitetining 2025-yil 16- apreldagi №01-22-04/369 son ma’lumotnomasi). Natijada, rangga oid folklor obrazlari, qadimiy rang timsollarining saqlanishi, hamda ularning zamonaviy tildagi aks etishi haqidagi kuzatishlar ushbu dissertatsiyada rang ifodalarining madaniyatlararo tahlilini amalga oshirishda metodik va nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan;

o‘zbek lingvistik kontekstida ilk marotaba ranglar bilan bog‘liq madaniy assotsiatsiyalarning chuqur tahlili amalga oshirilib, ikki tilning madaniy an’analari bo‘yicha rang terminlarining hissiy va ramziy qiymatini shakllantirish doirasida belgilangan xulosalardan 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024 yillarida amalga oshirgan va Toshkent shahridagi AQSH elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo’yicha amerika kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Acess Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan(Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 2- apreldagi №2-02-888 son ma’lumotnomasi). Natijada, SamDCHTIda ispan va o‘zbek madaniyatlarida ranglarning ramziy ma’nolari tahlil qilinib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari hamda madaniy kodlarning til manzarasiga ta’siri aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan respublika jurnallarida 4 ta va yuqori impakt-faktorli xalqaro

jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan. Shuningdek, 1 ta maqola Scopus bazasida indekslanadigan jurnalda nashr qilingan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy hajmi 125 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Frazeologiyada rang tushunchasini lingvokulturologik fenomen sifatida tadqiq qilishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida tilda rang ramziyatini o‘rganishning asosiy nazariy yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Frazeologizmlarga oid lingvokulturologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari muhokama qilinadi,. Ushbu bobda rang semantikasi bo‘yicha o‘zbek va ispan tilshunoslik an’analariga bag‘ishlangan ishlar batafsil muhokama qilinadi shuningdek, tilda rangni tahlil qilishning turli usullari ko‘rib chiqiladi. Ushbu elementlar lingvokulturologiyaning asosiy muammolarini va uning frazeologiya bilan bog‘liqligini tashkil etadi. Lingvokulturologiya bilan bog‘liq tarixiy g‘oyalar ushbu tilshunoslik sohasi rasmiy tan olinmasidan ancha avval rivojlana boshlagan. Vilgelm fon Gumboldtni ushbu yo‘nalish asoschisi deb ayta olamiz. U til xalqning mohiyatini, uning ruhini, tafakkur tarzini va madaniyatini aks ettirishini ta’kidlab o‘tgan[6].

Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslikning nazariy asoslari V.V. Vorobyov tomonidan taklif qilingan. Lingvokulturologiya “til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini o‘rganishga qaratilgan murakkab ko‘p qirrali fan bo‘lib, u til sistemasidagi birliklar va elementlarni yaxlit tuzilma sifatida ko‘rib chiqadi” deb ta’riflanadi. [7]Tildan tashqari (madaniy) mazmun zamonaviy madaniy me’yorlar va qadriyatlarga asoslangan kompleks usullar yordamida o‘rganiladi.

V.M. Maslovaning ta’kidlashicha, lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslikning tutashgan nuqtasidagi fan bo‘lib, til orqali aks ettirilgan xalq madaniyati ko‘rinishlarini o‘rganadi[8]. Shuni ta’kidlash joizki, lingvokulturologiyaning rivojlanishiga N.D. Arutyunova, A. Vejbitskaya, V.I. Karasik, V.A. Maslova, V.N. Teliya, Yu.S. Stepanov kabi olimlar, shuningdek, T.A.

---

[6] Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1984. - С. 68.

[7] Воробьев В. В. Лингвокультурология: Теория и методы. – М.: Изд-во РУДН, 1997. – С. 36.

[8] Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. Заведений.– М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 12.

Bushuy, D.U. Ashurov, D.N. Jusupov, D. R. Jumanov va A.A. Tkacheva katta hissa qo‘shganlar[9].

Sh.S. Safarovning so‘zlariga ko‘ra, “Til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy haqiqatlarini aks ettiruvchi madaniyat oynasidir”. A.F. Shamaxmudova esa o‘z ishlarida shunday tushuntiradi: “Til va madaniyat uzviy bog‘liq; til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning madaniy ma’nolari va o‘ziga xosligini ifodalaydigan asosiy tashuvchidir[10]”.

Madaniyat va mentalitet muammolari hamda ularning tilda aks etishi lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi batafsil tadqiqotlar madaniyat va tushunchalarning shakllanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish uchun asos yaratadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik tilning barcha darajalarida, fonetikadan tortib morfologiya va sintaksisgacha o‘z ifodasini topadi.

Frazeologizmlar tilning eng mazmunli elementlari sifatida lingvokulturologik jihatlarni o‘rganishda asosiy rol o‘ynaydi. Ular jamiyatning madaniy, etnografik va an’anaviy jihatlarini mustahkamlab, xalqning tarixiy-madaniy tajribasi va dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi til tizimining noyob qismini tashkil etadi.

Frazeologiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmaydigan his-tuyg‘ular, ironiya, munosabat va voqelikka bo‘lgan baho kabi ma’nolarni ifoda etish imkonini beradi. Shu jihatdan frazeologik birliklar lingvomadaniy tahlil uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ko‘p hollarda yorqin obrazlilikka, metaforalar, alluziyalar va madaniyat uchun muhim bo‘lgan ramzlarga – jumladan, ranglar, hayvonlar, turmush buyumlariga boy bo‘lib, turli tillar va madaniyatlarni taqqosiy o‘rganish uchun boy material hisoblanadi.

Frazeologizmlar milliy dunyoqarashni shakllantirish va ifodalashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Frazeologik birliklar orqali xalqning axloqiy qadriyatlari, mehnatga, boylik va kambag‘allikka, oila, hayot va o‘limga nisbatan munosabati, yaxshilik va yomonlik to‘g‘risidagi tasavvurlari ochib beriladi. Frumkina fikriga ko‘ra, rang ma’nolari nafaqat leksik-semantik, balki mental-assotsiativ maydonlarni ham shakllantiradi, ayniqsa barqaror ifoda vositalarda.

R.V. Alimpyev ta’kidlaganidek, rangni qabul qilish va qo‘llash etnomadaniy stereotiplar orqali shakllanadi: “Tilida rangni idrok etish jarayoni madaniy tajriba

---

[9] Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – 2-е изд. – М.: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.; Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. – М.: Языки славянской культуры, 1999. – 780 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.; Карасик В.И. Лингвокультурные концепты // http://www.socionauki.ru; Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.; Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – 3-е изд. – М.: Академический проект, 2004. – 992 с.; Бушуй Т.А. Фразеология в межкультурной коммуникации: лингвокультурологический аспект. – М.: Флинта, 2018. – 200 с.; Ашуров Д.У. Сопоставительный анализ фразеологизмов с компонентом «вода» в русском и таджикском языках // Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2021. – № 2. – С. 88–94; Джусупов Д.Н. Фразеологизмы с компонентами-цветообозначениями в кыргызском и русском языках // Язык и культура. – 2019. – № 3. – С. 67–73; Джуманов Д. Р. Лингвокультурологический анализ узбекских паремий. – Нукус: Каракалпакстан, 2021. – 145 с.; Ткачева А.А. Фразеологические единицы в зеркале культуры. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2017. – 210 с.

[10] Сафаров Ш. С. Этнолингвистика и межкультурная коммуникация. - Ташкент: Фан, 2005. - С. 56; Шамахмудова А. Ф. Язык как феномен культуры. - Ташкент: Узбекистан, 2012. - С. 34.

bilan bog‘liq bo‘lib, bu asosiy ranglarning turlicha talqin qilinishida o‘z aksini topadi[11]”.

Frazeologizmlar o‘zining barqarorligi va nutqda tez-tez qo‘llanishi tufayli nafaqat kommunikativ, balki kognitiv va madaniy identifikatsiya vazifalarini ham bajaradi. Ular xalqning kollektiv xotirasi belgisi sifatida xizmat qilib, madaniy o‘tmish, an’analar va xulq-atvor normalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham frazeologizmlar kognitiv va madaniy belgilar sifatida milliy dunyoqarashni yoritib beruvchi muhim omil sifatida o‘rganiladi.

B. Rasselning falsafiy qarashlariga ko‘ra, rang konseptlari nafaqat hissiy qabulni, balki mantiqiy va madaniy tasnifni ham o‘z ichiga oladi: “Bilish – bu faqat ko‘rish emas, balki narsaning qanday tushunchalar tizimiga tegishli ekanini anglashdir”[12].

Frazeologizmlar – bu faqatgina til birligi emas, balki madaniy ma’nolarni, mental qadriyatlar va ijtimoiy ramzlarni o‘z ichiga olgan ma’naviy xazina hisoblanadi. Ayniqsa, rang komponentli frazeologizmlar madaniy mazmunga boy bo‘lib, rang inson vositasida dunyoni idrok etishda universal kod vazifasini bajargani holda, har bir millatda u yoki bu simvolik ma’no bilan yuklana boshlaydi.

Lingvomadaniy tahlil rang frazeologizmlari orqali his-tuyg‘ular, qadriyatlar, tabu, ijtimoiy rollar, tarixi va madaniy tajriba qanday tarzda ifoda etilishini ko‘rsatish imkonini beradi.

Ispan va o‘zbek tillaridagi rang komponentli frazeologik birliklar taqqosiy tahlili ranglarning semantik va assotsiativ maydonlaridagi farq va o‘xshashliklarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, ispan tilida “verde” (yashil) rangi ba’zan nochorlik yoki tajribasizlikni bildiradi: “estar muy verde” – “hali pishmagan, tajribasiz bo‘lish”, o‘zbek tilidagi “suv yutmagan bola” iborasi bilan ma’nodosh. Shu orqali turli tillarda rangning assotsiatsiyasi muayyan ijtimoiy kontekstda qanday ifodalanganini kuzatish mumkin bo‘ladi.

O‘zbek tilida yashil rang asosan ijobiy ma’no kasb etib*, “yashil hayot”, “yashil dala”* kabi ifodalarda tabiiylik, tinchlik va hayotbaxshlik ramzi sifatida ishlatiladi. Ispan tilida esa ba’zan yashil rang nojo‘ya, hatto erotik yoki tanqidiy konnotatsiyalarda ham qo‘llanishi mumkin: “cont chistes verdes” – “uyatli hazillar aytmoq”. Bu esa rang tushunchasining milliy madaniyatda qanday interpretatsiyalanishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, qora rangning frazeologik ifodalardagi ma’no yuklamasi ham tilda va madaniyatda mavjud bo‘lgan stereotiplar, diniy tasavvurlar va tarixiy tajriba bilan chambarchas bog‘liq. Ispan tilidagi “*tener un futuro negro*” iborasi – *“kelajagi qorong‘i”* degan ma’noni bildiradi va salbiy ma’no anglatadi. O‘zbek tilidagi *“qora kunlar”* yoki *“qorong‘i tunlar*” iboralari bilan semantik jihatdan mos tushadi. Har ikki til madaniyatida qora rang – musibat, xavf yoki yo‘qotish timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Rang komponentli frazeologizmlar til va madaniyat orasidagi o‘zaro munosabatni tahlil qilishda juda samarali vositadir. Bu frazeologik birliklar orqali

[11] Алимпьев, Р.В. Восприятие цвета в языке: этнокультурный аспект // Вопросы языкознания. – 1987. – № 3. – С. 90.

[12] Рассел Б. История западной философии. – Нью–Йорк: Simon & Schuster, 1945. – С. 48.

milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar, diniy tasavvurlar, estetik ideal va axloqiy me'yorlar haqida boy ma'lumot olish mumkin. Ranglar orqali inson his-tuyg'ulari, psixologik holati, ijtimoiy maqomi va boshqa ko'plab omillar ifodalanadi.

O'zbek tilidagi *"oq yuzli", "oq ko'ngil", "oq yo'l"* kabi iboralar o'zida ijobiy, ezgu, halol, pokiza, samimiy ma'nolarni mujassamlashtirgan bo'lsa, ispan tilida "ser blanco como la nieve" (qor kabi oppoq) frazeologizmi ham xuddi shunday halollik, poklik, begunohlik ramzi sifatida talqin etiladi. Bunday umumiyliklar madaniy kontekstda o'xshash qadriyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ayni paytda, qizil rang ispan tilida nafaqat muhabbat va ehtiros, balki xavf, g'azab yoki agressiya timsoli ham bo'lishi mumkin: "*ver todo rojo*" – "hamma narsani qizil ko'rmoq" iborasi orqali inson g'azabi tasvirlanadi. O'zbek tilida esa qizil rang ko'proq bayram, zavq, to'y yoki shodlik bilan bog'liq: "*qizil gullar*", "*qizil kiyim*", "qizil olma" va h.k. Shu tarzda, ranglar har ikki tilda umumiy asosga ega bo'lsa-da, ularning frazeologik kontekstdagi ishlatilishi har xil semantik va madaniy rang-baranglikni hosil qiladi.

Shu bilan birga, rang nomlari ishtirokidagi frazeologizmlar xalq og'zaki ijodi, mifologik tasavvurlar, diniy tushunchalar va tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllangan. Masalan, o'zbek tilidagi "*oq yo'l*" iborasi safarga chiqqan kishiga tilak bildiruvchi ibora bo'lsa, bu milliy urf-odat va odob-axloq tizimi bilan uzviy bog'liq. Ispan tilidagi "camino blanco" esa odatda qo'llanmaydi, bu esa har bir tilda o'ziga xos madaniy kodlar mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbek tilidagi *"qora yurakli"* - ichi (yoki dili, ko'ngli, yuragi) qora yovuzlikni ifodalovchi frazeologizmi Markaziy Osiyoning milodiy IV–VI asrlarga oid xristiangacha bo'lgan e'tiqodlariga borib taqaladi. O'sha davrlarda zulmat olamning g'ayritabiiy kuchlari bilan bog'liq deb qaralgan. Arablar tomonidan bu hudud zabt etilgach (VIII asr), tasavvufiy islomda qora rang gunoh va ruhiy zulmat metaforasi sifatida shakllangan.

Shu bilan birga, *"Qora ishchi*" (ya'ni "jismoniy mehnat qiluvchi"), rus tilidagi iboraning kalkasi bo'lib, o'zbek tilida ijobiy ma'no kasb etgan. Xususan, sovet davridagi "paxtachilik monomadaniyati" sharoitida bu ibora halol jismoniy mehnat va iqtisodiy tayanch sifatida yuksak qadrlangan.

Qizil rang, ko'plab madaniyatlarda hayajon va kuchli hissiyotlar bilan bog'liq bo'lsa-da, ispan madaniyatida o'ziga xos ma'nolarga ega. Masalan, "Montar un pollo" (ya'ni "jo'ja ko'tarmoq") iborasi XIX asrda Madrid ko'cha savdogarlari orasidagi mojaroli holatlardan kelib chiqqan bo'lib, qizil rang bu yerda emotsional keskinlik va karnavalona tartibsizlik ramziga aylangan.

"Qizil yurak" iborasi XII–XIII asrlarga oid tasavvufiy she'riyatda paydo bo'lib, bu yerda qizil rang Xudoga bo'lgan mistik muhabbatni, ruhni poklovchi ilohiy olovni ifodalaydi. Bu holatda qizil rang oltinni tozalovchi olovdek qalbni gunohlardan poklaydi.

Diniy an'analar rang ifodali frazeologizmlarda muhim qatlamni tashkil etadi. Masalan, ispan tilidagi *"Verde de envidia*" (ya'ni "hasaddan yashil bo'lmoq") iborasi yashil rangni hasad bilan bog'laydi. Bu tushuncha o'rta asrlardagi

tasavvurlarga borib taqaladi, u yerda hasad “ruhaniy zahar” deb qaralgan va jismoniy belgilar (masalan, yashil tus) bilan ifodalangan.

O‘zbek tilidagi *“Dili oq”* iborasi – samimiylik, halollik va poklik belgisi bo‘lib, u tasavvufdagi ruhiy poklik g‘oyasi bilan islomgacha bo‘lgan zardushtiylikdagi nur va yorug‘lik kultining sintezini namoyon etadi. Bu nurga sig‘inish an’anasi arab istilosigacha mintaqada keng tarqalgan edi.

Tarixiy voqealar ham tilga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ispan tilidagi *“Hablar en plata”* (ya’ni “kumush tilida gapirmoq”) iborasi ochiq, rostgo‘y bo‘lishni anglatib, XVI asrda Potosi konlaridan chiqqan kumush bilan bog‘liq. Bu davrda kumush Ispaniya imperiyasi qudratining timsoliga aylangan, keyinchalik esa katolik etikasi doirasida halollik “soxtalikdan xoli” qimmatbaho metallga tenglashtirilgan.

O‘zbek tilida esa *“Paxta oltindir”* degan ibora mavjud bo‘lib, u O‘zbekiston iqtisodiyotida paxtachilikning asosiy o‘rin egallaganligini ifodalaydi. Sovet davrida “oq oltin” milliy faxr timsoli bilan birga, majburiy mehnatning ham belgisi bo‘lgan.

Ispan tilidagi “Estar como un ají” (ya’ni “qalampirdek bo‘lmoq”) iborasi esa g‘azabni ifodalaydi. Bu ibora XVI–XVIII asrlarda Mesoamerikadan olib kelingan chili qalampirining ispan gastronomiyasidagi *“achchiq”* va *“g‘ayritabiiy*” ta’siriga asoslangan bo‘lib, hissiyot va madaniy to‘qnashuv ramzi sifatida qaraladi.

O‘zbek tilidagi *“Sariq to‘y”* (ya’ni *“oltin to‘y”)* iborasi esa mo‘l-ko‘lchilik va boylik ramzidir. Bu ibora IV–VIII asrlarda yashagan so‘g‘diy savdogarlarning an’analariga borib taqaladi. Ularning ipak yo‘li orqali olib kirgan oltin tikuv “suzani” uslubi keyinchalik o‘zbek to‘y marosimlariga singdirilgan.

Globalizatsiya madaniyatlararo aloqalarni kuchaytirar ekan, yangi semantik gibridlar yuzaga kelmoqda. Masalan, ispan tilidagi *“Estar en la lista negra”* (ya’ni “qora ro‘yxatga tushmoq”) iborasi dastlab Fransisko Franko davridagi repressiyalar bilan bog‘liq bo‘lsa, XXI asrda bu ibora raqamli texnologiyalar ta’sirida ijtimoiy tarmoqlarda bloklash ma’nosini olgan.

O‘zbek tilidagi *“Binafsha rang”* iborasi esa dastlab IX–X asrlarda fors tilidan arabcha alximik matnlar orqali kirib kelgan bo‘lib, binafsha gullaridan olingan noyob bo‘yoqni bildirgan. Sovet davrida esa bu rang Yevropa madaniy ta’siri ostida hashamat va nafislik timsoliga aylangan.

O‘zbek tilida ishlatiladigan *“Ko‘kka chiqmoq”* (ya’ni “osmon darajasiga yetmoq”) iborasi yutuq va muvaffaqiyat ramzidir. Bu ibora Temuriylar davriga (XIV–XV asrlar) borib taqaladi. O‘sha davrlarda Samarqand va Buxoroning moviy gumbazlari – osmon va Tangrini ifodalovchi timsollar, ilohiy inoyat va abadiyat bilan aloqaning ramzi bo‘lgan.

Oq, qora, qizil, yashil, sariq, ko‘k va binafsha kabi ranglar o‘zbek va ispan tillarida turlicha semantik yuklamalarga ega bo‘lib, ular milliy ong va madaniyatning chuqur qatlamlarini ifodalaydi. O‘zbek tilidagi *«oq dil», «qora ko‘ngil», «paxta oltindir», «ko‘kka chiqmoq»* kabi iboralar diniy-falsafiy an’analar, tarixiy voqealar va iqtisodiy sharoitlar bilan bog‘liq. Ispan tilidagi *“verde de envidia”, “hablar en plata”, “estar en la lista negra”* kabi frazeologizmlar esa Yevropa tarixiy kontekstida shakllanib, madaniy va texnologik omillar ta’sirida zamonaviylik kasb etgan. Shunday qilib, rang nomlari orqali ifodalangan

frazeologizmlar ikki xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy xotirasining lingvomadaniy ifodasidir.

“Ispan va o‘zbek va olami lisoniy manzarasida rang semantikasining lingvistik va madaniy-tarixiy xususiyatlari” nomli dissertatsiyaning ikkinchi bobi milliy-madaniy dunyoqarashni shakllantirishda rangning rolini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ushbu bobda turli madaniyatlardagi, xususan, o‘zbek va ispan tillaridagi frazeologik birliklarda ranglar simvolikasi tadqiq qilinadi. Qora, oq, qizil va yashil kabi turli ranglarga oid frazeologizmlar keltiriladi va ularning madaniy an’analar kontekstidagi ramziy ma’nolari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu bobda ikki xalq madaniyatidagi ranglar ma’nolarining qiyosiy tahlili ham amalga oshiriladi.

Ispan tilida asosiy bazaviy rang terminlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: *“rojo” (qizil), “azul” (ko‘k), “verde” (yashil), “amarillo” (sariq), “negro” (qora) va “blanco” (oq).* Ushbu terminlar ko‘rinadigan yorug‘lik spektrining turli jihatlarini ifodalash uchun ishlatiladigan universal rang kategoriyalarini tashkil etadi. Rus tilida ham asosiy rang terminlari orasida *“красный” (qizil), “синий” (ko‘k), “зеленый” (yashil), “желтый” (sariq), “черный” (qora) va “белый” (oq)* mavjud. Ammo rus tilida “*бирюзовый” (*ko‘k-yashil tus) va “*оранжевый*” (sariq-qizil tus) kabi ranglarning nozik tuslarini ifodalash uchun qo‘shimcha terminlar ham mavjud. O‘zbek tilida bazaviy rang terminlari quyidagilardan iborat: *“қизил” (qizil), “кўк” (ko‘k), “яшил” (yashil), “сариқ” (sariq), “қора” (qora) va “оқ” (oq). Shuni ta’kidlash joizki, “кўк”* so‘zi kontekstga qarab ko‘k va moviy (osmon rang) ma’nolarini ham anglatishi mumkin. Ushbu farqlar va o‘xshashliklar rang nomlarining turli tillardagi semantik tuzilmalari va ularning madaniy kontekstdagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi.(diagrammaga qarang)

Vaqt o‘tishi bilan rangni qabul qilish sezilarli darajada o‘zgardi. Jamiyat ongida insonning ranglarni his qilish qobiliyatini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmasdi. A.R. Vasilyevich va R.M.Frumkina kabi tadqiqotchilar ranglarni ifodalovchi lug‘at tarkibini, rang terminlarining semantikasi va uslubiy funksiyalarini o‘rganganlar. Shu bilan birga, R.V. Alimpyev rang qabul qilishning psixolingvistik jihatlarini ko‘rib chiqqan bo‘lsa, A.A. Bragina va I.V. Mokiyenko[13] rang terminlarining semantik tuzilmasi bilan shug‘ullanganlar. Bundan tashqari, L.V. Laenko rang belgilariga oid sotsiologik eksperimentlar o‘tkazgan, N.B. Baxilina esa rang xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy tahlil qilgan. [14]

Tillaridagi rang ifodalari faqat asosiy sifatlar bilan chegaralanmaydi, balki so‘z yasash jarayonlarida faol ishtirok etadi va metaforik hamda ramziy qo‘llanishda yangi ma’nolar kasb etadi. O‘zbek va ispan tillari rang leksikasining rivojida ham

[13] Васильевич А.П. Исследование лексики цветообозначения в русском языке. - М.: Наука, 1975. - 184 с.; Фрумкина Р.М. Цвет, смысл, сходство: Аспекты психолингвистического анализа. - М.: Наука, 1984. - 175 с.; Алимпьев Р.В. Психолингвистические аспекты цветовосприятия // Вопросы языкознания. - 1987. - № 3. - С. 56-67; Брагина А.А. Цветовые обозначения в русском языке: семантический анализ. - М.: МГУ, 1982. - 118 с.; Мокиенко В.М. Семантика цветообозначений в славянских языках // Славянское языкознание. - 1993. - С. 89-104.

[14] Лаенко Л.В. Социолингвистические аспекты цветонаименований. - Киев: Наукова думка, 1989. - 132 с.; Бахилина Н.Б. История цветообозначений в русском языке. - М.: Наука, 1975. - 288 с.

universal, ham milliy-madaniy xususiyatlarni namoyon etadi, bu esa til tuzilmasi hamda madaniy va kognitiv dunyoqarashdagi farqlarga bog‘liqdir.

XVII asr ispan dramasi namoyandalaridan bo‘lgan Kaldèron ijodida oq rang (“blanco”) ilohiy haqiqat ramziga aylanadi, bu hol katolik aqidasi va barokko estetikasi ta’siri bilan izohlanadi. Masalan, uning “Hayot – bu tush” (“La vida es sueño”, 1635) nomli dramasida keltirilgan quyidagi satr – *“La vida es sueño, y lo blanco es la pureza del alma”*[15] – oq rangni ruh pokligi bilan bog‘laydi. Bu obraz Muqaddas Maryam (Bibi Maryam) timsoli va nasroniy tozalanuv marosimlari bilan uzviy bog‘liqdir.

XV asr o‘zbek she’riyati vakili Alisher Navoiy ijodida yashil rang (“yashil”) muqaddaslik darajasiga ko‘tarilib, islomiy ruhiyat va so‘fiylik an’analari bilan bog‘liq bo‘ladi. Uning quyidagi misrasi: *«Yashil bog‘da dilbarim, gulday rang-bo-rang» – bog‘ni ma’naviy yetuklikka eltuvchi ramziy yo‘l sifatida talqin etadi»*[16]. Bu obraz Qur’oni karimdagi jannat tasvirlarida «daryolar oqib turuvchi bog‘lar» deb keltirilgan holatlarga, shuningdek, Buyuk Ipak yo‘li madaniy merosiga borib taqaladi. Ayniqsa, Samarqand va Buxoro me’morchiligida yashil rang abadiylikni anglatgan.

Adabiyot ranglarga doir assotsiatsiyalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Masalan, Servantesning “Don Kixot” romanida Rosinantaning kulrang (“gris”) rangi zodagonlik inqirozini ifodalasa, qahramon kiygan yashil (“verde”) plash – idealizmning beg‘uborligini aks ettiradi[17].

O‘zbek mumtoz adabiyotida Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostoni misolida Laylining *oq ro‘moli* (“oq”) pok muhabbat timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu obraz Usmonli an’analarida oq rangning dafn marosimlari bilan bog‘liq ekani fonida yanada teran ma’no kasb etadi[18].

O‘zbek tilida rang ifodalari affiksatsiya orqali yangi so‘zlar yasashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Eng keng tarqalgan qo‘shimchalar: *“-simon”, “-rang”, “-tosh”, “-gina”, “-suf”* bo‘lib, ular orqali rangning ohanglari, unga o‘xshashlik yoki assotsiativ belgilari ifodalanadi: “qizg‘ish” (pushti rangga o‘xshash), *“sarig‘simon” (sarg‘ish), “qoracha” (qora rangli), “yashilsimon” (yashil rangsimon).* Bunday yasamalar o‘zbek tilining tizimli moslashuvchanligi va semantik boyligini ko‘rsatadi.

Ispan tilida xuddi shunday vazifani bajaruvchi qo‘shimchalar: *“-oso”, “-ado”, “-izo”, “-ento”, “-áceo”* bo‘lib, rang ifodalariga ohanglar va yaqinlik ma’nosini qo‘shadi. Bunday so‘zlarga misollar: *“rojizo” (qizg‘ish), “azulado” (moviy tusli), “amarillento” (sarg‘ish), “verdeáceo” (kulrang-yashil*). Bunday yasama modellari adabiy va so‘zlashuv uslubida keng qo‘llaniladi, chunki ular tilda tasviriy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Rang, shuningdek, metaforik vosita sifatida keng qo‘llaniladi, u orqali mavhum tushunchalar, hissiyotlar, axloqiy va estetik baholar ifodalanadi.

---

[15] Кальдерон де ла Барка П. Жизнь есть сон / Пер. с исп. Н. Любимова. – М.: Искусство, 1982. – С.45.

[16] Навои А. Собрание сочинений: в 10 т. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1968. – Т. 5. – С.131.

17 Cortés L. Frases hechas y expresiones idiomáticas del español. – Barcelona: Ediciones Octaedro, 2018. – P.112.

[18] Эргашев И.Р. Персидские заимствования в узбекской лексике. – Ташкент: Фан, 1998. – С.77.

O‘zbek tilida rang ifodalari milliy an’analar va mentalitet bilan chambarchas bog‘langan: masalan, *“oq yuzli odam”* – halol va munosib inson, *“qora kunlar”* – og‘ir, baxtsiz kunlar, *“qizil yurak”* – jasur va qo‘rqmas odam, “*yashil qalb*” – ruhiy poklik ramzi.

Bu iboralar madaniy kodlar va folklor tasavvurlarida ildiz otgan bo‘lib, har bir rang ramziy vazifani bajaradi.

Ispan tilida ham rang terminlari ko‘p hollarda barqaror iboralarda qo‘llanilib, hissiy holat, ijtimoiy baho yoki hayotiy vaziyatlarni ifodalaydi: *“verlo todo negro*” – hamma narsani qorong‘i ranglarda ko‘rmoq, *“ponerse rojo*” – uyatdan qizarib ketmoq, “pasar la noche en blanco” – butun tun uxlamaslik, *“dar luz verde*” – ruxsat bermoq, jarayonni boshlash.

Ispan tilida rang atamalari ot sifatida ham ishlatiladi. Masalan: *“el azul del cielo”* – osmon moviyligi, *“el rojo de la sangre”* – qonni qizilligi, *“el verde de los árboles”* – daraxtlarning yashilligini. Bunday holda rang nomi artikl bilan keladi va aniqlovchilar bilan to‘ldiriladi: *“el intenso azul”* – chuqur moviylik. Bu roman tillarining sifatni nomga aylantirish (nominalizatsiya) xususiyatini aks ettiradi.

Misollarni kengaytirsak, ispan tilida rang ifodalari murakkab metaforalarga singdirilganini ko‘rish mumkin. Masalan, “*azul marino*” (dengiz moviyligi) nafaqat rangni bildiradi, balki chuqurlik va cheksizlik bilan bog‘lanadi, “*marino azul*” esa faqat bevosita ta’rifdir. Frazeologizmlarda ranglar ko‘rinishdan uzilib ketadi: *“pasarlo en negro*” – yashirin daromadga ega bo‘lmoq, “*verse en rojo*” – qarzdorlikka tushmoq.

O‘zbek tilida rang metaforalari ko‘pincha madaniy kodlarga tayanadi: *“oq soqol*” – donishmandlik timsoli, *“qizil belbog‘*” – to‘y marosimi, *“ko‘k choy*” – aslida yashil choyni bildiradi, *“қора кўз*” – ko‘z tegishi yoki jodu[19].

Shunday qilib, o‘zbek va ispan tillarida rang atamalari tuzilmasi asosiy terminlarning universalligini (yadro) tasdiqlaydi, biroq periferik qismi tipologik va madaniy omillar ta’sirida shakllanadi.

O‘zbek tili agglutinativ bo‘lib, ohanglarni ifodalashda suffiksatsiya va reduplikatsiyadan foydalanadi (“qizilgina”, “yam-yashil”), ispan tili esa jins/sonda muvofiqlashtirish va tavsiflovchi tuzilmalarni *(“azul marino”, “verde claro*”) qo‘llaydi.

O‘zbek tilida ranglar metaforasi agrar va diniy arxetiplarga tayanadi *(“оқ юзли”* – halollik), ispan tilida esa ijtimoiy-hissiy kontekstlarga bog‘liq (“*ponerse rojo*” – uyalish). Ispan tilida ranglar substantiatsiya qilinadi (“*el azul del cielo*”), o‘zbek tilida esa ular mavhum tushunchalar bilan bog‘liq barqaror iboralarda namoyon bo‘ladi *(“qora kunlar*” – qora kunlar). Bu xususiyatlar til evolyutsiyasining umumiy qonunlarini va har bir xalqning o‘ziga xos madaniy kodlarini aks ettiradi.

Uchinchi bob “**Badiiy adabiyotdagi frazeologik birliklarda rang ramziy ma’nolarining lingvokulturologik tahlili**” deb nomlanadi. Ushbu bobda o‘zbek va

[19] Akramova S. O‘zbek tilida rang bildiruvchi metaforalar va ularning madaniy semantikasi // Filologiya masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2019. – №3. – B. 67.

ispan maqollari asosida ranglarga oid frazeologizmlarning batafsil lingvokulturologik tahlili amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ispan tillarida rang nomlari ishtirokidagi frazeologizmlar orasida eng ko‘p uchraydiganlari oq (blanco) va qora (negro) ranglar bo‘lib, ular umumiy barqaror iboralarning taxminan 25 foizini tashkil etadi. Shuningdek, qizil (rojo), yashil (verde), tilla (oro), sariq (amarillo) va ko‘k (azul) ranglar ham frazeologiyada uchraydi, ammo kamroq darajada.

Har ikki madaniyatda ham oq rang tabiiy obyektlar – qor, sut, paxta, qog‘oz bilan bog‘lanadi. Bu assotsiatsiyalar asosida barqaror qiyoslashlar yuzaga kelgan: o‘zbek tilida “*qor kabi oppoq*”, “*sutdek oppoq*”, “*paxtadek oppoq*”, ispan tilida esa “*blanco como la nieve*”, *“blanco como el papel*”. Tabiiy assotsiatsiyalarda o‘xshashlik mavjud bo‘lsa-da, oq rangning ramziy ma’nolari madaniyatlararo farq qiladi.

O‘zbek madaniyatida oq rang muqaddas elementlar – do‘ppilardagi naqshlar, himoya tikuvlari va marosim ramzlari bilan bog‘liq. Ispan an’analarida esa oq rang qadimgi davrlardan boshlab kiyimdagi poklik va ijtimoiy elita belgisi sifatida qaralgan.

Lingvistik xususiyatlar ham madaniy tafovutlarni aks ettiradi. Masalan, ispan tilidagi *“pasar la noche en blanco”* frazeologizmi tarixiy ritsar marosimi bilan bog‘liq bo‘lib, jang oldidan tunni ibodatda o‘tkazgan ritsarlar an’anasini eslatadi. Hozirgi tilda bu ifoda uyqusiz tunni anglatadi. Masalan, Karlos Ruis Safon romanida qahramonning kechki xavotirlari aynan shu metafora orqali ifodalanadi:“*Después de la desaparición de Julián, Penélope pasó la noche en blanco, escuchando el eco de sus pasos en los pasillos vacíos*”[20]; *«Tras la desaparición de su hijo, Clara pasó la noche en blanco, enfrentándose a los espectros de su culpa mientras la lluvia golpeaba los cristales como lágrimas del cielo»*[21]*; «El día que Melquíades predijo su muerte, José Arcadio pasó la noche en blanco, contemplando cómo las polillas tejían sudarios de luz alrededor de la lámpara»*[22].

O‘zbek tilida esa oq rang ko‘proq go‘zallik va olijanoblik kontekstida qo‘llaniladi – “oq yuzli” iborasi insonning nafaqat tashqi go‘zalligini, balki ichki pokligi va nurliligini bildiradi. Alisher Navoiy she’riyatida yuzning oppoqligi ma’naviy poklik va qalb nuri timsoli sifatida talqin etiladi: *«Sen oq yuzli deb atiy shuhrat topding, Ko‘ngildagi nurni olamga sochding»*[23]. Oq rang ma’naviyat bilan bog‘liqligini saqlab qolgan: xalq og‘zaki ijodida u ko‘pincha ma’rifat va yuksaklik bilan bog‘lanadi. Masalan, «oqlanmoq» metaforasi holatning ayonlashuvi, aniqlashuvini anglatadi[24].

Bu ramziy ma’no zamonaviy adabiyotda ham davom etadi. Masalan, O‘tkir Hoshimovning *“Hayot yo‘llari”*asarida quyidagi ifoda ruhiy uyg‘onish holatini ko‘rsatadi: *«Haqiqat qanchalik achib ketsa, tuman shu qadar oqlardi. Uning*

[20] Руис Сафон К. Тень ветра. – Barcelona: Planeta, 2001. – С.145.
[21] Руис Сафон К. Тень ветра. – Barcelona: Planeta, 2001. – С.281.
[22] Руис Сафон К. Тень ветра. – Barcelona: Planeta, 2001. – С.292.
[23] Навои А. Собрание сочинений: в 10 т. – Ташкент: Издательство Академии наук УзССР, 1968. – Т. 5. – С.131.
[24] Хасанов А. Цвет в узбекской поэзии. – Тошкент: Академия, 2012. – 78 с.

ko‘zlaridagi shubha oqlandi»[25]. Bu yerda tumanning tarqalishi metaforasi oq rangning tafakkur ravshanligi, anglash va haqiqatni ko‘rish bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi.

E’tiborga molik jihat shundaki, ispan tilida oq rang ko‘pincha ijtimoiy belgilarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “estar sin blanca” (so‘zma-so‘z – “oqsiz qolmoq”) idiomasi qashshoqlikni anglatadi va Blanca del Agnus Dei nomli qadimiy tangaga borib taqaladi: Lope de Vega’ning “Pichanni qo‘riqlagan it” (“El perro del hortelano”) nomli pyesasida jamiyatdagi inqiroz holati quyidagicha tasvirlanadi*: “Don Diego, tras perder su fortuna, estaba sin blanca y mendigaba en las calles de Madrid”*[26]. Bu yerda Blanca del Agnus Dei nomli tangalarning qadrsizlanishi ijtimoiy mavqening qulash ramziga aylanadi.

O‘zbek tilida bunga o‘xshash ifoda – *“oq tillasiz qolmoq”* bo‘lib, u ham boylik belgisi bo‘lgan kumushdan mahrum bo‘lishni anglatadi. Bu yerda oq rang moddiy farovonlik ramzi bo‘lib, uning yo‘qolishi kambag‘allikni bildiradi: Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida boylikdan ajralish quyidagicha ifodalanadi: *«Sarvarning otasi biznesni yo‘qotganidan keyin, ular oq tillasiz qoldi»*[27]. Bu yerda kumush (ya’ni “*oq tilla*”) tarixiy boylik timsoli sifatida talqin qilinadi; uning yo‘qolishi esa an’anaviy hayot tarzining inqirozga uchrashi bilan bog‘lanadi.

Ispan tilidagi *“delito de guante blanco”* (oq qo‘lqopdagi jinoyat) iborasi tashqi jihatdan beozor, ammo aslida xavfli bo‘lgan yuqori qatlam jinoyatlarini bildiradi. Xavyer Serkasning “El poder” romanida muallif oliy doiralardagi korrupsiyani tanqid qiladi: *“Los políticos, con sus trajes impecables, cometían delitos de guante blanco mientras el país se hundía en la deuda”*[28]. Bu ibora *“oq qo‘lqop jinoyatlari” (delitos de guante blanco)* orqali siyosiy elitaga xos bo‘lgan jinoyatlarning tashqi jihatdan “pok” ko‘rinishi, ammo asl mohiyatda halokatli ta’sirini ochib beradi. Oq rang bu yerda tashqi beayblik, aybsizlik timsoli sifatida qo‘llanib, riyo va ikkiyuzlamachilikni fosh etadi.

O‘zbek tilida bu ifodaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobili yo‘q, biroq *“zarduzini to‘kib, qalbini qora qilmoq”* kabi iboralar elitaning ikkiyuzlamachiligini, tashqi bezak va ichki buzuqlik o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi. Zamonaviy yozuvchi Tulkin Tura qalamiga mansub “O‘tganlarning soyasi” romanida quyidagi satrlar orqali ikkiyuzlamachilik mavzusi ochib beriladi: *«Uning ko‘ylagidagi zarduz nafis, lekin qalbi qora edi. Shunday qilib, u “zarduzini to‘kib, qalbini qora qilgan” odamga aylandi»* [Tur 2020:145]. Bu yerda zardo‘zli (ya’ni oltin ip bilan tikilgan) kiyimdagi tashqi nafislik va *“qora yurak*” o‘rtasidagi kontrast qahramonning riyo va axloqiy tanazzulga yuz tutganini anglatadi. Tashqi ko‘rinishdagi olijanoblik ichki buzuqlikni yashiradi; oltin – boylik va e’tibor belgisi sifatida – bu yerda soxta niqobga aylansa, qora rang axloqiy tubanlik ramzidir.

O‘zbek tilida oq rang ko‘pincha ruhiy va tabiiy obrazlar bilan bog‘liq. “Oq hayot”, “oq yo‘l tilamoq”, “oqlanmoq” kabi iboralar halollik, ravshanlik, farovonlik bilan bog‘lanadi. She’riyat va nasrda oq rang ko‘pincha ma’naviy uyg‘onish,

[25] Хашимов У. Дороги жизни: Роман. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 89 с.
[26] de Vega L. El perro del hortelano / ed. crítica de J. M. Ruano de la Haza. – Madrid: Cátedra, 2001. P.45.
[27] Кадыри А. Минувшие дни. – Ташкент: Ёзувчи, 2020. – С.76.
[28] Cercas J. El poder. – Madrid: Random House, 2018. – P.212.

tafakkur pokligi, xavfsizlikning ramziy ifodasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, O‘tkip Hoshimov asarida oq tuman tarqalishi qahramonning anglash va ma’rifatga erishishini anglatadi. Erkin Vohidov she’rlarida “oq hayot” “oq niyat”dan boshlanadi – bu tasavvufiy poklik g‘oyalarining ta’sirini ko‘rsatadi.

Ispan madaniyatida ham oq rang halollik va shaffoflikni ifodalashda ishlatiladi. “Poner en blanco” iborasi hisob-kitob yoki harakatlarni rasmiylashtirish, ularni tashqi jihatdan “tozalash” ma’nosini anglatadi. Biroq bu har doim ham haqiqatni anglatmaydi. Eduardo Mendosa romanida auditor hujjatlarni “tozalaydi”, lekin korrupsiya davom etadi – bu holat rasmiy adolatning shakliy, biroq samarasizligiga tanqidiy munosabatdir.

Alohida e’tibor talab qiladigan iboralardan biri – “un elefante blanco” (oq fil) bo‘lib, u qimmatbaho, ammo foydasiz narsani bildiradi. Bu ibora Janubi-Sharqiy Osiyoda oq fillar muqaddas sanalib, ularga egalik qilish katta xarajatlarga sabab bo‘lgan an’anaga borib taqaladi. Manuel Vilas romanida yangi stadion aynan “elefante blanco” sifatida tasvirlanadi – maqsadsiz xarajatlar ramzi sifatida. O‘zbek tilida bu kabi obrazlar boshqacha ifodalanadi. Masalan, “oq olti” iborasi omadli yoki omadsiz holatni bildiradi, ko‘pincha o‘yinga oid yoki taqdirga ishora qiladi. Bu yerda oq rang ramziy emas, balki ko‘rinish xususiyatiga ega unsur sifatida ishlatiladi.

Ispan tilidagi “ir de punta en blanco” (to‘liq bezatilgan, yalt-yult kiyingan) idiomasi tashqi ko‘rinishning benuqsonligiga urg‘u beradi. *“Los Caballeros iban de punta en blanco”* – ya’ni *“Ritsarlar to‘liq oq libosda, silliqlangan qurollarda yurishardi”* degan ibora odatda ritsarlarning jilolangan po‘lat zirhda yurishini ifodalab, ularni jangga tayyor holatda tasvirlaydi. Ularning qurollari quyoshda shunchalik porlardiki, bu tashqi ko‘rinish ular haqidagi yuqori ijtimoiy mavqe va tayyorgarlik belgisi sifatida qabul qilinardi.

O‘zbek tilida bu kabi metaforalar mavjud emas: urushchi yoki jangchining maqomi quroli bilan emas, balki chavandozlik mahorati va shaxsiy jasorati orqali belgilanadi.

Ayniqsa, o‘zbek madaniyatida oq rangning ikki tomonlama ma’nosi alohida qiziqish uyg‘otadi. Bir tomondan, “oq fotiha” iborasi ota-onaning roziligi, ma’naviy qo‘llab-quvvatlashi va nikoh uchun ruhiy tayyorgarlikni anglatadi. Masalan, Tulqin Turning “Oq ipak” nomli asarida quyidagi jumlani keltiradi: «Ota-onasining oq fotihasini olgandan keyingina, uylanishga harakat qildi»[29]. Bu yerda oq rang rozilik va ruhiy uyg‘unlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ispan tilida shunga o‘xshash ma’no “*bendición paterna*” – “*otaning duosi*” shaklida ifodalanadi, biroq bunda rang orqali ramziy ma’no berilmaydi.

Biroq, o‘zbek tilida “oq” rang salbiy konnotatsiyada ham uchraydi. Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Parokanda yulduzlar” romanida: *«U “oq padar” deb yurgan bola edi, chunki otasi uning ishonchini yo‘qotgan edi»*[30]. Bu yerda *“oq padar*” iborasi otalik roziligi emas, balki oila rishtalarining uzilishi, ishonchning yo‘qolishi,

[29] Тур Т. Белый шёлк: Повесть. – Тошкент: Шарқ, 2018. –С.89.

[30] Хашимов У. Разбитые звёзды: Роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – С.101.

ya’ni ijtimoiy-ruhiy ajralishni bildiradi. Oq rang bu yerda yo‘qotilgan poklik ramziga aylanadi.

Bu holat ispan tilida uchramaydi, chunki “blanco” (oq) so‘zi odatda faqat ijobiy semantikani anglatadi. Masalan, Gabriel Garsia Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” romanida: *«El vestido de Remedios era blanco como la nieve, pero su alma ya estaba manchada por los secretos de Macondo»*[31]. Bu yerda oq rang – begunohlik va sodda poklik timsoli bo‘lib, reallik ta’sirida buziladi.

Rang ramziy kod sifatida hayot, o‘lim, quvonch, motam va ijtimoiy tuzilma kabi fundamental tushunchalarni ifodalashda xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek maqollarida qizil rang ko‘pincha quvonch va bayramlar bilan bog‘liq bo‘lsa, ispan an’analarida u asosan ishqiy ehtiros, xavf va kurashni anglatadi. Rangning konnotatsiyalari madaniy kontekstga qarab o‘zgaradi. Qora rang har ikkala madaniyatda ham o‘lim va motam kabi salbiy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zbek an’analarida u ko‘proq ajdodlar xotirasiga hurmat ma’nosini bildiradi. Ispan madaniyatida esa bu rang ko‘pincha g‘amginlik va zulmat tuyg‘usini ifodalaydi.

Ispan paremiologiyasida oq rang ko‘pincha poklik va muqaddaslik timsoli bo‘lib xizmat qiladi: *“Manos blancas no ofenden*” – oq qo‘llar kimgadir zarar yetkazmaydi (imtizozli qatlam); *“Después de la noche negra viene el día blanco*” – oq kun umid va yangilanishni anglatadi*; “Chimenea nueva, blanca unos días...*” – orzular vaqtinchaligini bildiradi; *“El blanco es el color que se ensucia más fácilmente”* – poklikning nozikligi; *“Amigo leal y franco, mirlo blanco*” – sadoqatli do‘st – kamyob hodisa.

Shunga o‘xshash obrazlar o‘zbek paremiologiyasida ham *mavjud “Yaxshi qiliq oq sut bilan kirsa...”* – yaxshilik poklikka munosib; *“Sutdan oq, qordan toza”* – mutlaq poklik belgisi; “Oq yuvib, oq taramoq” – aybdan oqlashga harakat qilish; *“Oqargan soch oltindan qimmat*” – qarilikdagi donolik; *“Og‘zi oqqa tegdi*” – ikkiyuzlamachilik belgisi; “*Oq degan – olqish...”* – jamiyatda ijobiy maqom; *“Oq kitobga yozmoq”* – bekor gaplar, be’manilik.

Ispan tilidagi “negro” (qora) so‘zi esa ko‘pincha salbiy ma’noda keladi: *“Tener la negra”* – doimiy omadsizlik; *“Ser una merienda de negros”* – tartibsizlik, to‘polon; *“No hay que inventar el hilo negro”* – ortiqcha harakat, oddiy narsani murakkablashtirish; *“La más negra...”* – eng katta baxtsizlik; *“Blanco y negro para el artista...”* – chuqurlik va soddalik qarama-qarshiligi.

Ushbu ma’no o‘zbek paremiologiyasida ham o‘z ifodasini topgan*: “Betiga qora kuya surkamoq”* – ochiqchasiga sharmanda qilish; *“Qora yurakdan oq so‘z chiqmas”* – yomon insondan yaxshi so‘z chiqmaydi; *“Ichi qora”* – fitnagar, yovuz niyatli; *“Yuzi qora bo‘ldi”* – obro‘sizlanish; “Ig‘vogarga oq sut ham qora” – haqiqatni buzib ko‘rsatish; “Qalbning yuzi qora” – ma’naviy tubanlik; *“Qora ter chiqmoq”* – qattiq uyalish; *“Xalqdan ajralganning yuzi qora bo‘lar”* – jamiyatdan ajralgan insonning inqirozi.

Frazeologizmlarning klassifikatsiyasi amalga oshirilib, ularning strukturaviy va semantik xususiyatlari o‘rganiladi, shuningdek, rangni idrok etishdagi madaniy farqlar ham tahlil qilinadi. Alohida e’tibor A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, U.

[31] Маркес Г.Г. Сто лет одиночества / пер. с исп. – Москва: Эксмо, 2021. – С.89.

Hoshimovning “Ikki eshik orasi” hamda G. Garsia Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” asarlariga qaratilgan bo‘lib, bu asarlarda ranglar ramziyati madaniy kontekstni yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Ispan va o‘zbek yozuvchilarining adabiy asarlari rang palitrasidan turlicha foydalanishni namoyish etadi, bu esa hissiy ta’sirni kuchaytiradi va ramziy ma’no kasb etadi. Gabriel Garsia Markesning “Yolg‘izlikning yuz yili” va O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlarida ranglar nafaqat tasvirlarni boyitish uchun, balki qahramonlarning ichki dunyosi, ularning psixologik ziddiyatlari va o‘zgarishlarini aks ettirish uchun ham ishlatiladi. Oq rang ushbu asarlarda ko‘pincha poklik va ma’naviyat bilan bog‘liq bo‘lsa, qora rang esa taqdirning muqarrarligi va fojeaviy voqealarni anglatishi mumkin.

«Ikki eshik orasi» asari Utkir Hoshimovda qizil rang ko‘p qirrali ramz sifatida namoyon bo‘ladi, u issiqlik, energiya va ona bilan bog‘liq bo‘lgan chuqur his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Quyidagi parcha: *«Qizil tungulik quyoshning soyabonlariga oyna kabi yog‘du sochishi, onasi bilan bog‘liq xotiralarni yodga soldi»*-bu yerda qizil rang ona mehri bilan bog‘liq iliqlik timsoliga aylanadi. Quyosh botishidagi yorqin qizil nurlarning “oyna kabi” chaqnashi o‘tmishdagi baxtli lahzalarni eslatadi, ammo ayni vaqtda bu yorqinlik “yaralaydi” – ya’ni o‘tganlarni qaytarib bo‘lmasligi qahramonning qalbida og‘riq uyg‘otadi. Quyosh botishi – yorug‘likdan zulmatga o‘tish ramzi bo‘lib, bu ruhiy iztirobni kuchaytiradi. Qizil bu yerda faqat hayotiy energiya emas, balki yo‘qotish bilan bog‘liq achchiq xotiralarning ham timsoli sifatida xizmat qiladi. Yorqin qizil manzara tashqi jihatdan chiroyli ko‘rinsa-da, ichki tomondan azobni aks ettiradi. Bu holatda qizil rang – o‘tmishga bo‘lgan sog‘inch, sevgi, yo‘qotish va umidsizlikning sintezidir.

«Qora tundagi qizil chiroqning nurlari uyning devorlariga tushdi, lekin uning qalbidagi zulmatni yoritishga qodir bo‘lmadi»-bu yerda qizil yorug‘lik umid va iliqlik timsoli sifatida paydo bo‘ladi, lekin qora tun, ya’ni ichki zulmat qarshisida ojizdir. Bu metafora qahramonning umidsizligini, ichki bo‘shligini ifodalaydi. Tashqi dunyodagi issiqlik va chiroqning nuri qalbdagi qorong‘ulikni yengolmaydi. Bu kontrast orqali Hoshimov tashqi va ichki olam o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Qizil chiroq – samarasiz umid, yolg‘izlikda tirik qolgan hissiyotlarning ramzi.

Abdulla Qodiriyning «O‘tgan kunlar» romanida qizil rang hayotiy kuch, qat’iyat va ijtimoiy faollik ramzidir. Bu rang obrazlar orqali voqealarning dinamikasini kuchaytiradi, tarixiy jarayon va qahramonlar xarakteridagi irodani ta’kidlaydi. Masalan: *«Qizil tovonli tuyalar och ko‘zlarini qadaldirib, dalani kesib o‘tishardi»* bu yerda tuyalarning qizil tovonlari – chidamlilik, irodaning timsoli. Qizil rang harakat va bardavomlik ramzi sifatida ishlatilgan. Bu detal nafaqat tasviriy vosita, balki xalq madaniyatida mavjud bo‘lgan “toqat va sabr” ramzini ham ifodalaydi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri odam emas, balki hayvon obraziga yuklangan bu ramz orqali muallif o‘sha davr og‘irliklari fonida harakatning muhimligini ko‘rsatadi.

«Qizil qalpoqli yosh yigitlar maydonga chiqib, o‘yinga tayyorlandilar. Ularning qalpoqlari quyosh nurida yondi, ularning yuzlarida ishq va g‘azabning ochqinlari yondi» bu sahnada qizil qalpoq – yoshlarning birligi, g‘ayrati va kurashga tayyorligi timsoli. Qizil bu yerda ikki qutbli his-tuyg‘ularni – sevgi va g‘azabni

birlashtiradi. U yosh avlodning idealizmga, adolatga bo‘lgan intilishini, ijtimoiy o‘zgarishlar sari bo‘lgan harakatini bildiradi. Rangning yorqinligi – ularning ichki olamidagi jo‘shqinlikni ko‘z oldimizga keltiradi.

Gabriel Garsia Markesning «Cien años de soledad» romanida qizil rang ehtiros, g‘azab va inqilobiy ruh ramziga aylanadi. Masalan: *«El coronel Aureliano Buendía, en una habitación de rojo intenso, miraba los papeles y los recuerdos de su pasado»* («Polkovnik Aureliano Buendía, to‘q qizil rangdagi xonada, o‘zining qog‘ozlari va o‘tmishdagi xotiralariga qarab turardi») bu yerda qizil xona – qahramonning ichki olami ifodasi. Xonaning to‘q qizilligi uning hissiyotlaridagi intensivlikni, ichki ziddiyat va pushaymonlikni ochib beradi. Bu faqat tashqi fon emas, balki timsollashtirilgan ruhiy portret. Qizil bu yerda inqilobiy harakat, o‘tgan idealizm va bugungi yolg‘izlik o‘rtasidagi kuchli qarama-qarshiliklarni ramziy qiladi.

3.3.2-jadval

Asarlarda qizil rangdan foydalanishni taqqoslash

Kriteriy	**Hoshimov (“Ikki eshik orasi”)**	**Qodiriy (“O‘tgan kunlar”)**	**Márquez (“Cien años de soledad”)**
Asosiy ramziy ma’no	Nostalgiya, ichki ziddiyat	Kuch, faollik, birlik	Ishq, zo‘ravonlik, tarixiy jarohat
Madaniy kontekst	Oila doirasidagi shaxsiy drama	Ijtimoiy norozilik va an’analar	Lotin Amerikasi urushlari va inqiloblari
Kontrast ranglar	Qizil vs. qora (zulmat)	Qizil vs. neytral tuslar	Qizil vs. oltin (iluziyalar)
Obyektlar–tashuvchilar	Quyosh botishi, fonar	Tuya tuyog‘i, do‘ppilar	Xona, daryo
Hissiy yuklama	G‘am, ojizlik	Energiya, qat’iyat	G‘azab, umidsizlik
Falsafiy mazmun	O‘tmishning qaytmasligi	Kelajak uchun kurash	Halokatning takrorlanuvchanligi

«La sangre de los muertos tiñó de rojo el río, y el aire se llenó de un olor metálico que recordaba a la guerra» («O‘ldirilganlar qoni daryoni qizilga bo‘yadi, havo esa urushni eslatuvchi metal hidi bilan to‘ldi») bu tasvirda qizil – kollektiv travmaning rangi. Daryoning qonga bo‘yalishi – zo‘ravonlikning chegaradan o‘tganligini va endi u butun makonni o‘zgartirib yuborganini anglatadi. Qizil rang bu yerda hayot emas, o‘lim va qirg‘in ramzidir. U tarixiy halokatning bevosita ifodasiga aylanadi. Bu obraz Makondo hayotida zo‘ravonlik va urushning izsiz o‘tmaganini ko‘rsatadi.

Shu tarzda, har bir muallif o‘z madaniy muhitidan kelib chiqib, qizil rangga turlicha, ammo teran semantik yuk yuklaydi. Hoshimovda u hissiy xotiralar va ruhiy bo‘shliqni, Qodiriyning prozasida – kuch va qat’iyatni, Markesda esa – ehtiros va halokatni ifodalaydi.

Rang semantikasidan foydalanishdagi farqlar nafaqat qahramonlarning shaxsiy kechinmalarini, balki ular yashayotgan madaniy jihatlarni ham aks ettiradi. O‘zbek madaniyatida ranglar ko‘pincha an’analar va tarixiy voqealar bilan bog‘liq bo‘lib, asarlarning ma’nosini chuqurlashtiradi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlarida ranglar semantikasi qahramonlarning emotsional holatini va madaniy kontekstlarni yetkazishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu asarlarda ishlatilgan ranglar nafaqat matnni boyitadi, balki o‘zbek xalqining madaniy xususiyatlarini chuqurroq anglashga imkon beradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ranglar ma’nosi kontekstga qarab turlicha bo‘lishi mumkin va bu ularning adabiyotda ishlatilishini ayniqsa ifodali qiladi.

“O‘tkan kunlar” va “Ikki eshik orasi” asarlaridagi ranglar semantikasini qiyoslaganda, birinchi asarda ranglar ko‘pincha ijobiy assotsiatsiyalar bilan bog‘lanib, madaniy va milliy qadriyatlarni ta’kidlaydi. Ikkinchi asarda esa ular ko‘proq ichki ziddiyatlar va murakkab ijtimoiy voqeliklarni aks ettiradi. *Ijobiy assotsiatsiyala*r**:** “O‘tgan kunlar” asarida qizil rang ko‘pincha quvonch va bayramlar bilan bog‘liq. Ko‘k rang umid va xotirjamlikni ramziy qiladi. *Salbiy assotsiatsiyalar*: “Ikki eshik orasi” asarida qora rang qayg‘u va yo‘qotishlarni ifodalaydi. Yashil rang an’anaviy tarzda ijobiy ma’noga ega bo‘lsa-da, ba’zan noaniqlikni anglatishi mumkin. *Nostalgia va yo‘qotish*: Uchala asar ham yo‘qotish va nostalgiya mavzularini ranglar ramziyati orqali o‘rganadi. “O‘tgan kunlar”da bu holat tabiat tasvirlari orqali ko‘rinadi va qahramonlar hayotidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. “Ikki eshik orasi”da esa ziddiyatli ranglar ichki kurash va qiyinchiliklarni ta’kidlaydi. “Yolg‘izlikning yuz yili” asarida esa nostalgiya interyerlar va tabiat tasvirlaridagi ranglar orqali ifodalanadi.

Ispan va o‘zbek madaniyatlarining tarixiy va geografik sharoitlari farqliligiga qaramay, ranglar ramziyatini talqin qilishda ko‘plab o‘xshashliklarni kuzatish mumkin. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, madaniy va tarixiy kontekstlarning farqiga qaramay, ko‘plab qadriyatlar va ramzlar universallikka ega yoki o‘xshashlikni namoyon qiladi. Masalan, qizil va qora ranglar har ikkala madaniyatda ham ko‘pincha muhim, lekin aksariyat hollarda salbiy ma’noga ega bo‘lgan kurash, mojarolar yoki o‘lim kabi hodisalar bilan bog‘liq.

XULOSA

1. Iboralardagi rang ifodalariga alohida e’tibor qaratiladi**,** chunki ular faqatgina rangning fizik tavsifini emas, balki murakkab madaniy ma’nolarni ham uzatadi. Rang komponentiga ega frazeologizmlar xalqning an’analari, qadriyatlari, stereotiplari va tarixiy tasavvurlarini ifoda etuvchi madaniy kod sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ispan tilidagi “oq” rangi ko‘pincha poklik va beg‘uborlikni anglatadi, bu esa xristian madaniyati bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi iboralarda esa oq rang ko‘pincha donolik va yetuklik timsoli sifatida talqin qilinadi, bu esa kattalarga

hurmat bilan bog‘liq lokal madaniy qarashlar bilan izohlanadi. Shu tariqa, rangli frazeologizmlar milliy tafakkurni aks ettiruvchi o‘ziga xos oynaga aylanadi.

2. Rang tasavvuri faqat fiziologik omillar bilan emas, balki tarixiy-madaniy sharoit, mifopoetik an’analar va diniy kodlar bilan ham belgilanadi. Ispan va o‘zbek lingvomadaniy makonlarida bir xil rang turlicha, ba’zida esa o‘xshash semantik maydonlarni shakllantiradi. Masalan, ispan madaniyatida qizil rang muhabbat va ehtiros bilan bog‘lanadi, bu ko‘plab frazeologik birliklar va adabiy obrazlarda yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek madaniyatida esa qizil rang baraka, hayotiy kuch ramzi sifatida talqin qilinadi. Bunday tafovutlar turli madaniyatlarda bir xil rang atamasi asosida har xil ramziy mazmun shakllanishini va bu holat milliy til manzarasini boyitishini ko‘rsatadi.

3. Ispan va o‘zbek tillaridagi rang komponentiga ega frazeologizmlar milliy dunyoqarashning tilshunoslik ifodasidir. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ikkala tildagi rangli frazeologik birikmalar nafaqat ohang yoki tusni ifodalaydi, balki konseptual va ramziy vazifalarni ham bajaradi. Ular xalqning madaniy arxetiplari, qadriyatlari va stereotiplarini til orqali ifodalash vositasiga aylangan. Bu holat rang tushunchasi lingvomadaniy tasavvurda ajralmas tarkibiy qism ekanini isbotlaydi.

4. Rang ifodalari yuqori semantik va ramziy yuklamaga ega. Rangga oid frazeologizmlar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noni chetlab o‘tadi va ramz sifatida ishlatiladi. Ular his-tuyg‘ular, baholash, insoniy xatti-harakatlarni aks ettiradi. Shu tarzda ular yaxshilik va yomonlik, kuch va ojizlik, donolik va nodonlik kabi tushunchalarni kodlaydi va universal semiotik belgilar sifatida namoyon bo‘ladi.

5. Rang ifodalarida universal va madaniy xosliklar aniqlangan. Ba’zi ranglar turli madaniyatlarda umumiy ramziy ma’noga ega (masalan, oq – poklik, qora – motam yoki yovuzlik). Biroq farqlar ham kuzatiladi: masalan, ispan tilida yashil rang ko‘pincha hasad yoki odobsizlikni bildirsa, o‘zbek tilida u tabiat va hayot ramzidir. Bu esa madaniy-assotsiativ tafovutlarni ochib beradi.

6. Rangli maqol va matallar xalq ongining kollektiv ifodasidir. Paremiologik birliklar – xalq donishmandligi xazinasi bo‘lib, rang orqali axloqiy me’yorlar, turmush tarzlari va ijtimoiy qadriyatlar ifodalanadi. Ranglar orqali inson xulq-atvori, ijtimoiy mavqei, hissiy holati va munosabatlar baholanadi.

7. Badiiy adabiyotda rang vositasida obrazlilik va ko‘p qatlamli ma’no yaratilgan. Ispan va o‘zbek adabiyoti namunalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, rangli metafora va ramzlar muallif tomonidan badiiy tipaj yaratishda, hissiy taranglikni berishda va milliy identifikatsiyani ochishda faol qo‘llanilgan. Bu esa matn ifodaviyligida rangning muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.

8. Ispan va o‘zbek tillaridagi rang atamalari frazeologik birliklarda ishtirok etish bilan birga, madaniyatni belgilovchi marker sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ranglarning ramziy ma’nosi madaniy ijtimoiylashuv jarayonida shakllanib, xalqning kollektiv tajribasini ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida ranglar ko‘proq marosimiy, diniy va qadimiy urf-odatlar bilan bog‘langan holda qo‘llaniladi. Ispan madaniyatida esa ranglar estetik va hissiy komponent sifatida kuchliroq ifoda etilgan. Bu urg‘ular tafovuti har ikki xalqning mentalitetida mavjud bo‘lgan chuqur

farqlarni aks ettiradi. Ushbu xususiyatlar folklor va badiiy manbalar tahlili asosida aniqlangan.

9. Dissertatsiyada badiiy asarlarning rang semantikasi nuqtai nazaridan tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Abdulla Qodiriy, O‘tkir Hoshimov va Gabriel Garsia Markesning romanlari tahlil qilinar ekan, mualliflarning rang vositasida qahramonlarning psixologik holati va asarning umumiy kayfiyatini ifodalaganlari kuzatildi. O‘zbek adabiyotida rang obrazlari ko‘pincha urf-odat va hayot tarziga bog‘liq holda tasvirlanadi. Ispan tilidagi adabiyotda esa rang timsollari taqdir, falsafa va metafizik tushunchalar bilan uyg‘unlashgan. Bu holat rangning nafaqat til darajasida, balki madaniyatning mental makonida ham alohida o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Natijada badiiy matnlar rang ramzlarini tadqiq qilishda nazariy mulohazalarni tasdiqlovchi qimmatli materialga aylandi.

10. Qiyosiy yondashuv ikki madaniyatdagi rang ishlatilishidagi farqlarni ochdi. Ispan tilidagi frazeologiyada rang ko‘proq hissiy holat va shaxsiy kechinmalarni ifodalasa, o‘zbek tilida axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy kontekstda ishlatiladi. Bu farqlar diniy, tarixiy va madaniy omillarning til obrazlariga ta’siridan kelib chiqadi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

ДЖАЛИЛОВА САРВАРОЙ МЕХРОЖОВНА

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СЕМАНТИКА ЦВЕТА В ИСПАНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ФЗАЗЕОЛОГИИ

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/Fil4415.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Шамахмудова Азиза Фуркатовна** доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Киселёв Дмитрий Анатольевич** доктор филологических наук, доцент
	Бахронова Дилрабо Келдиёровна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	**Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится «20» августа 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарин, 43. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером №6931). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «1» августа 2025 года.
Протокол реестра рассылки за № 27 от «1» августа 2025 года

Н.З. Насруллаева
Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

У.У. Кулдошов
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях глобализации и углубляющихся межкультурных контактов возрастающее внимание всемирной лингвистической науки уделяется вопросам языковой репрезентации культуры и формированию национальной картины мира через семантику. Одним из приоритетных направлений современной лингвистики становится изучение цветообозначений как универсальных и в то же время глубоко специфичных культурных кодов. Цветовая семантика рассматривается не только как лексическая категория, но и как концептуальный элемент, отражающий этнокультурные ценности, эмоционально-психологические установки и ментальные особенности носителей языка. В этом контексте исследование лингвокультурной символики цвета в фразеологических единицах приобретает особую значимость и вызывает научный интерес у лингвистов разных стран.

В научных центрах мировой лингвистики наблюдается устойчивый рост числа исследований, посвящённых роли цвета в межкультурной коммуникации, символике цвета в языке и культуре, а также сопоставительным анализам цветообозначений в разных языках. В Испании, например, активно развиваются лингвокультурологические и семантические исследования в рамках фразеологического материала, в которых цвет рассматривается как ключ к пониманию культурных кодов. Международные конференции и научные журналы, посвящённые когнитивной лингвистике и межкультурной коммуникации, все чаще включают в свои повестки вопросы символики цвета как элемента концептуальной картины мира. Это подтверждает востребованность темы в мировом академическом дискурсе и её соответствие актуальным научным трендам.

В годы независимости Узбекистана изучение цветовой символики в описании человека выявило влияние истории, традиций, религии, искусства и литературы на восприятие цвета. Это подчеркивает, как универсальность, так и уникальность цветовых ассоциаций. В условиях модернизации науки возрастает интерес к языку как культурному феномену. Как подчёркивает Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев: «Наука и просвещение имеют важное значение для повышения интеллектуального и духовного потенциала не только молодежи, но и всего нашего общества[32]» (Мирзиёев, 2024). Эти слова подчеркивают значимость научных исследований для развития страны. В приоритет ставится изучение иностранных языков, подготовка специалистов, создание современных учебных материалов и проведение исследований, отражающих современные подходы к лингвистике и культурной интеграции.

Диссертационное исследование вносит вклад в реализацию задач, определенных Указом Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего

[32] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojati // https://president.uz/ru/lists/view/3324

образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указом Президента Республика Узбекистан УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указом Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлением Президента Республики Узбекистан ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности о популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», и другими нормативно-правовыми документами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, формирование системы инновационных идей и способы их реализации».

Степень изученности проблемы. Языковой состав и культурные значения цветовых обозначений в художественных текстах изучались рядом зарубежных лингвистов, уделявших внимание символической, когнитивной и метафорической нагрузке цвета[33].

Значительный вклад в культурные различия восприятия цвета и его отображение в узбекской фразеологии внесли такие исследователи, как Н.Д. Ташланова, Н. З. Улухужаев, М.К. Турдиева, Х.Т. Умаров, Н.К. Шарипова, А.В. Саидов, И.М. Ходжалепесова.[34]

---

[33]Берлин Б., Кей П. Основные цветовые термины: их универсальность и эволюция. – Беркли: University of California Press, 1969. – 178 с.; Локк Дж. Опыт о человеческом разумении. – Лондон: Thomas Basset, 1690. – 456 с.; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. – 3-е изд., испр. и доп. – Москва: Индрик, 2005. – 288 с.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М., 1996. – 411 с.; Брагина А. А., Мокиенко И. В. Семантическая структура цветовых терминов. – СПб.: Издательство СПбГУ, 2005. – 320 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология. - М.: РУДН, 2008. - 340 с.; Бахилина Н. Б. История цветообозначений в русском языке. – М.: Наука, 1975. – 287 с.; Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград, 2002. – 477 с.; Корнилов О.А. Языковая картина мира как производное национального менталитета. – М.: ЧеРо, 2003. – 349 с.

